



Aziza MASHRABBEKOVA,
Hankuk chet tillar universiteti (Koreya Respublikasi) professori, PhD
E-mail: aziza692002@gmail.com
SON YOUNG HOON
Hankuk chet tillar universiteti (Koreya Respublikasi) professori, PhD
E-mail: kazalash@hufs.ac.kr

JIDU dotsenti G.Abdurahmonova taqrizi asosida

LINGUISTIC ISSUES IN THE NATIONALIZATION OF FOREIGN WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The article explores the challenges of replacing borrowings used in the written styles of modern Uzbek literary language with their national equivalents. Under the influence of globalization, the growing dominance of the English language over other world languages has made the preservation of linguistic purity an important academic issue. The author analyzes the reasons for the active use of borrowings from English, French, and other languages, despite the existence of Uzbek equivalents. At the same time, foreign borrowings are not entirely rejected: the author determines cases where their adoption is justified and proposes Uzbek alternatives for those used inappropriately. The study employs descriptive and comparative methods to examine the meanings of borrowed words and their Uzbek counterparts. The results can serve as a practical reference for further studies on the nationalization and adaptation of foreign words in the Uzbek language.

Key words: Modern Uzbek literary language, lexical borrowing, linguistic purity, national equivalent, terminology, globalization.

ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛИЗАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Статья посвящена проблемам замены заимствований, используемых в письменных стилях современного узбекского литературного языка, их национальными эквивалентами. Под воздействием глобализации усиливающееся доминирование английского языка над другими языками мира превратило задачу сохранения языковой чистоты в одну из актуальных научных проблем. Автор рассматривает причины активного употребления заимствований из английского, французского и других языков, несмотря на наличие узбекских эквивалентов. При этом иностранные заимствования не отвергаются полностью: автор определяет случаи, когда их использование оправдано, и предлагает узбекские аналоги для слов, применяемых неуместно. В статье используются описательный и сопоставительный методы анализа значений заимствованных слов и их узбекских соответствий. Полученные результаты могут служить практической основой для дальнейших исследований, направленных на национализацию и адаптацию заимствований в узбекском языке.

Ключевые слова: Современный узбекский литературный язык, заимствования, языковая чистота, национальный эквивалент, терминология, глобализация.

O'ZBEK TILIDA XORIJIY SO'ZLARNI MILLIYLASHTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqola hozirgi o'zbek adabiy tili yozma uslublarida qo'llanilayotgan o'zlashmalarni ularning milliy muqobillari bilan almashtirish muammolariga bag'ishlangan. Globallashuv ta'sirida ingliz tilining boshqa tillar ustidan kuchayib borayotgan ta'siri til sofligini saqlash masalasini muhim ilmiy muammoga aylantirdi. Muallif ingliz, fransuz va boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashmalar o'zbek tilida muqobili mavjud bo'lsa-da, ularning faol qo'llanilish sabablari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xorijiy o'zlashmalar to'liq inkor etilmaydi: muallif ularni qabul qilish qaysi holatlarda o'rinli ekanini aniqlaydi va noo'rin ishlatilayotgan o'zlashmalar uchun o'zbekcha muqobillarni taklif etadi. Tadqiqotda o'zlashma so'zlar va ularning o'zbekcha ekvivalentlari ma'nolarini tavsiflash hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar xorijiy so'zlarni o'zbek tiliga milliyalashtirish va moslashtirishga doir keyingi tadqiqotlar uchun amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Hozirgi o'zbek adabiy tili, so'z o'zlashuvi, til sofligi, milliy muqobil, terminologiya, globallashuv.

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy hodisa bo'lib, har bir davrda u yangilanib, boyib boradi. Globallashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda dunyo tillari o'rtasidagi aloqa va ta'sir jarayoni yanada faollashdi. Natijada bir tildan ikkinchisiga so'z o'zlashuvi tabiiy hodisaga aylandi. Biroq bu jarayonning me'yordan ortiq kuchayishi milliy tillarning sofligi va o'ziga xosligini saqlash muammosini kun tartibiga chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-son Farmoni hamda 2020-yil 20-oktyabrdagi

"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida o'zbek tilining nufuzini oshirish, yangi so'z va atamalarni ilmiy asosda iste'molga kiritish hamda ularning bir xilda qo'llanishini ta'minlash vazifalari belgilangan [1].

Mazkur hujjatlar o'zbek tili taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Shu jihatdan, xorijiy so'zlarning o'zbek tilida haddan tashqari faol qo'llanilayotgani, ayniqsa ingliz tilidan kirib kelayotgan birliklarning ko'paygani tilshunoslikda alohida ilmiy muammoni yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ingliz, rus, turk va boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashmalar – marketing, blogger, dizayn,

kontent, platforma, trend, startup, brending kabi soʻzlarning qoʻllanish doirasi tez surʼatda kengaymoqda. Ularning barchasi zamonaviy hayotning ajralmas qismi boʻlib qolgan, biroq koʻplab hollarda ularning oʻzbekcha muqobillari mavjud boʻlsa-da, faol ishlatilmayapti.

Til siyosatining asosiy maqsadi faqat rasmiy meʼyorni belgilash emas, balki xalqning ona tiliga boʻlgan ishonchini, faxrini va uni saqlash masʼuliyatini mustahkamlashdir. Shu jihatdan, xorijiy soʻzlarni izchil milliyashtirish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy mustaqillikning ham muhim qismi hisoblanadi.

Ushbu maqola xorijiy soʻzlarning oʻzbek tilida qoʻllanishi, ularni milliyashtirish tamoyillari hamda oʻzbekcha muqobillarni qoʻllashning amaliy imkoniyatlarini tahlil etishga bagʻishlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oʻzbek tili leksikasi, uning oʻz va oʻzlashma qatlamlari koʻplab tilshunoslar tomonidan oʻrganilgan. Turli yillarda bu masalaga bagʻishlangan dissertatsiyalar va maqolalar eʼlon qilingan. Tadqiqotchilar, jumladan H. Paul [3], A. Fitrat [4], A. Hojiyev [5] va boshqalar xorijiy soʻzlarni oʻzbekcha muqobillari bilan almashtirish yoki, hech boʻlmaganda, ularni milliy til fonetik qonuniyatlariga moslashtirish zarurligini taʼkidlaganlar.

Har bir til rivojlanishi uchun boshqa tillar bilan aloqa oʻrnatishi tabiiydir. Leksik darajada bu jarayon soʻz almashinuvi orqali yuz beradi: bir til boshqa tildan soʻz oladi, shu bilan birga oʻz soʻzlarini ham boshqa tillarga beradi. Jahon tilshunosligida soʻz oʻzlashishi tillarning leksik boyishida muhim va tabiiy jarayon sifatida eʼtirof etiladi.

Oʻzbek tilshunoslari ham bu masalaga eʼtibor qaratganlar. “Devonu lugʻotit turk”da Mahmud Koshgʻariy ayrim arabiy soʻzlarni ar. deb koʻrsatgan [6], bu esa eski turkiy davrdan boshlab arabcha unsurlar mavjudligini bildiradi. E. Begmatovning taʼkidlashicha, arab tili bilan aloqa mavjud boʻlgani til kontaktining erta boshlanganini koʻrsatadi. Keyingi davrlarda oʻzbek tili fors-tojik, rus va ingliz tillaridan ham soʻz qabul qilgan [10].

Soʻz oʻzlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham mavjud. Masalan, chechak soʻzini gul, bitik soʻzini esa kitob siqib chiqargan. Ammo ushbu maqolada biz bu masalaga toʻxtalmay, hozirgi oʻzbek tilida soʻz oʻzlashtirish jarayonining holati haqida fikr yuritmoqchimiz.

E. Begmatov arabcha soʻzlarning oʻzlashishi haqida shunday yozadi: “Oʻrta Osiyoda arablar hukmronligi davrida oʻzbek-arab tillari aloqasi yuzaga keldi. Bu davrda arab tili davlat va din tili, fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida keng tarqaldi. Oʻzbek tiliga arab tilidan soʻz olish, asosan, oʻzbek-arab bilingvizmi davrida (VII – IX asrlar) kuchli boʻldi. Keyingi davrlarda oʻzbek tiliga yangi soʻzlar sezilarli darajada qabul qilinmadi, balki oʻzbek tiliga kirgan koʻpgina arabcha elementlardan bir qismining eskirishi va oʻzbek tilidan chiqish jarayoni yuz berdi” [11].

Koʻrinadiki, bir tildan ikkinchi tilga soʻz oʻzlashishi xalqlarning aloqalari natijasidir. Ammo oʻzlashma soʻz til uchun faqat u yangi tushuncha bilan kirgandagina foydali boʻladi. Arabcha soʻzlarning koʻpchiligi aynan “yangi tushuncha + yangi nom” tarzida oʻzlashgan. Tilshunos N. Mahmudov [12] va B. Serebrennikov [13] ham bunday oʻzlashuvning tilda eng kam ijtimoiy qarshilikka uchraydigan tabiiy yoʻl ekanini taʼkidlaydilar.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, soʻz oʻzlashuvi tabiiy jarayon boʻlishi bilan birga, u til siyosati va milliy tafakkurga bevosita taʼsir etuvchi muhim hodisadir. Bugungi kunda ingliz tilidan kirib kelayotgan oʻzlashmalar soni va taʼsir doirasi keskin ortgani sababli, ularni milliyashtirish masalasi oʻzbek tilshunosligining dolzarb yoʻnalishlaridan biriga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatish, tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi yordamida hozirgi oʻzbek tili leksikasida faol ishlatilayotgan xorijiy soʻzlarning qoʻllanish sohasi va semantik oʻzgarishlari oʻrganildi. Tavsifiy hamda qiyosiy tahlil asosida oʻzlashmalarining tuzilishi, maʼnosi va ularning oʻzbekcha muqobillari tahlil qilinib, qoʻllanish meʼyori aniqlashtirildi.

Deduktiv va induktiv yondashuvlar uygʻun qoʻllanib, umumiy lingvistik tamoyillar hamda ularning hozirgi oʻzbek tili leksik tizimidagi ifodasi tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida gazeta va jurnal maqolalari, rasmiy hujjatlar hamda internet nashrlaridagi matnlar tanlandi. Natijalarning ishonchligi bir necha manbalarni solishtirish orqali tekshirildi.

Tadqiqot davomida oʻzlashmalarining tahlilini berishda tilshunoslikda tan olingan qarashlardan, xorijiy oʻzlashmalarining maʼnolarini talqin qilishda, ularning hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi muqobillarini taklif qilishda ishonchli lugʻatlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda “til globalashuvi” deb ataladigan hodisa soʻnggi oʻn yilliklarda dunyo tillarining oʻzaro taʼsirini kuchaytirdi. Xususan, ingliz tili xalqaro aloqa, fan, texnologiya va biznes tili sifatida koʻplab tillarga faol taʼsir koʻrsatmoqda. Bu jarayon oʻzbek tilida ham yangi leksik birliklarning paydo boʻlishiga olib keldi. Soʻz oʻzlashuvi tabiiy jarayon boʻlsa-da, u meʼyordan ortiq kuchaysa, tilning milliy ruhiga, fonetik va morfologik tizimiga putur yetkazadi. Bu haqda tilshunoslar juda koʻp yozmoqda, ingliz tilining ekspansiv harakatlarini tiyishda milliy tilning ichki imkoniyatlaridan koʻproq va muntazam foydalanish mumkinligini aytishmoqda, buning natijasida faqat til emas, xalqlarning olamni tanish tarziga taʼsirlar boʻlayotganini taʼkidlashmoqda [14]. Yaqin oylarda oʻzbek tilidagi 40 ta xorijiy atamaning oʻzbek tilidagi muqobillari tasdiqlanib, rasmiy isteʼmolga kiritilgani [15] oʻzbek tilining globalashuvning salbiy taʼsiriga tushishidan bir qadar saqlaydi.

Koʻplab davlatlarda (masalan, Fransiya, Turkiya, Isroil) tilni begona unsurlardan himoya qilish uchun maxsus til komissiyalari va qonuniy cheklovlar joriy etilgan. Oʻzbekistonda ham Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Atamalar komissiyasi tashkil etilib, shu yoʻnalishda ishlar boshlandi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida xorijiy vositalar, ortiqcha ishlatilishi ayniqsa ommaviy axborot vositalari, reklama, texnologiya, huquq, iqtisod va sport terminologiyasida yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan, start berildi, laynsmen, trend, penalti kabi atamalar oʻzbekcha muqobillari mavjud boʻlishiga qaramay, xorijiy shaklda ishlatilmoqda. Ularning muqobillari – boshlandi, yon hakam, urf boʻlmoq, jarima toʻpi – tilda mavjud boʻlsa-da, kam qoʻllanmoqda.

Tilshunos Y. Odilov fikricha, yangi oʻzlashmalar tilda “yangi tushuncha + yangi nom” tarzida oʻzlashganidagina foydali boʻladi; aks holda, ular xalqning konseptual dunyoqarashiga yangilik kiritmaydi [16]. Shu bois rieltor, makler, spiker kabi atamalarni vositachi, dallol, soʻzlovchi kabi muqobillar bilan almashtirish tildagi tabiiylikni tiklaydi.

Alohida eʼtiborli jihat shundaki, spiker soʻzi ikki xil maʼnoda ishlatilmoqda. Parlament tizimida – masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri shaklida – bu atama oʻzining aniq rasmiy maʼnosiga ega boʻlib, xalqaro termin sifatida qoʻllanishi asosli. Biroq shu soʻzning ommaviy nutqda, telekoʻrsatuv yoki konferensiya ishtirokchilariga nisbatan ishlatilishi (“Studiya mehmoni” – mashhur spiker”) tildagi noʻrin oʻzlashma hisoblanadi. Bu kabi hollarda soʻzlovchi, suhbardosh kabi oʻzbekcha soʻzlar til meʼyoriga mos va tabiiyroqdir. Shunday qilib, spiker atamasi faqat parlament

kontekstida me'yoriy, boshqa hollarda esa milliy ekvivalentlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya sohasidagi o'zlashmalarning ko'pi (brauzer, printer, skaner) esa zaruratdan kelib chiqqan bo'lib, fonetik moslashuv orqali til tizimiga singmoqda. Y. Odilov qayd etganidek, skaner so'zi dastlab informatika sohasiga oid bo'lgan, keyinchalik aeroport va bojxona terminologiyasiga ham o'tgan. Demak, bu so'z o'zbek tiliga yangi tushuncha olib kirgan, shuning uchun bunday o'zlashmalar tabiiy sanaladi.

Iqtisodiy va biznes sohasida rieltor, makler distribyutor, promouter, so'zlari keng tarqalgan. Aslida, rieltor va makler so'zlari o'zbek tiliga yangi ma'no olib kirmagan, chunki tilda ilgari vositachi yoki dallol so'zlari mavjud edi. Shu bois terminologiya siyosati doirasida ularni milliy muqobillar bilan almashtirish to'g'ri bo'ladi.

Shuni aytib o'tish joizki, matbuotda "Hyundai Auto Kazakhstan O'zbekistonga avtomobil distribyutori sifatida kirmoqda". (<https://kun.uz/>) kabi jumlar paydo bo'lgan paytda, distribyutor atamasini tarqatuvchi deb tarjima qilish mumkin edi, zero bu so'zning inglizcha ildizi "tarqatmoq" ma'nosini anglatadi. Xuddi shuningdek, promouter (inglizcha promote – targ'ib qilmoq) so'zi reklama, sport va shou-biznes matnlarida joriy qilindi, biroq bu soha vakillarini tashkilotchi deb atash mumkin. Ko'rinadiki, ayrim yangi atamalar milliy variant topilmasdan turib o'zlashib ketgan, bu esa tildagi izchillikka va milliy ifoda uslubiga putur yetkazadi.

Xorijiy atamani milliy so'zga almashtirishning yana bir misoli – transparentlik termini. 2000-yillar boshida u matbuotda oshkoralik ma'nosida ishlatila boshlagan, biroq tez orada unga to'g'ri keladigan o'zbekcha so'z – shaffoflik ommalashib, xorijiy atama iste'moldan chiqdi. Ba'zi so'zlar xalq nutqida keng qo'llanib ketgach, ularni keyinchalik o'zbekcha muqobil bilan almashtirish qiyin bo'ladi, ammo rasmiy hujjatlar va OAV tilida milliy variantni tanlash to'g'ri yo'ldir. Vaqt o'tishi bilan yangi avlod ana shu milliy shakllarni ta'lim jarayonida o'zlashtirib, ularni tabiiy me'yorga aylantiradi.

Huquqiy matnlarda uchrayotgan de-yure va de-fakto kabi iboralar ham o'zbek tilidagi qonunan va amalda birliklari bilan to'liq ifodalanadi. Elektron OAV misollarida bu hol aniq ko'rinadi: "Bugun, 30 noyabr kuni, Qozog'iston de-yure BSTning to'laqonli a'zosiga aylanadi" (kun.uz, 30.11.2015) yoki "Rossiya hukumati ochiq bozorda aksiyalarni sotib olgan investorlar ulushlarini de-fakto qadrsizlantirgan" (kun.uz, 10.10.2025). Bu gaplarda de-yure o'rniga qonunan, de-fakto o'rniga esa haqiqatda yoki amalda so'zlari ishlatilsa, ma'no o'zgarmaydi.

Avval sport musobaqalari sharhida qo'llanishga kirgan start berilmoq so'zi gazetalar tiliga boshqa mavzulardagi matnlarga ham ko'chmoqda. Masalan, "Pokistonda O'zbekiston bo'ylab o'tuvchi motoralliga start berildi" (kun.uz, 06.08.2025) yoki "Farg'onada chiqindilardan elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasiga start berildi" (yuz.uz). Ushbu matnlarda start berildi iborasi o'rniga boshlandi so'zini ishlatish tabiiyroq bo'lar edi. Boshlanmoq so'zining "start

bermoq"ni erkin almashtirayotgani uning o'zbek lisoniy manzarasini yangi tushuncha bilan boyitmayotganini ko'rsatadi va hozirgi o'zbek adabiy tili uchun ortiqcha ekanini asoslaydi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar nutqida post, like, comment, trend kabi inglizcha so'zlar faol qo'llanadi. Ularning xabar, yoqtirish, izoh, urf kabi o'zbekcha muqobillari mavjud bo'lsa-da, inglizcha shakllar moda va global madaniyat ta'siri ostida ustunlik qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy so'zlarning haddan tashqari ko'payishi ikki asosiy muammoni keltirib chiqarmoqda:

1) mavjud o'zbekcha birliklar passivlashmoqda;

2) yangi o'zlashmalar me'yorsiz ishlatilmoqda.

Natijada menedjer – rahbar, lider – yetakchi, imij – obro', biznesmen – tadbirkor kabi juftliklarda semantik takrorlanish paydo bo'lmoqda. Shu sababli har bir yangi atama o'zbekcha muqobili bilan bir qatorda baholanishi lozim.

O'zlashmalarni to'liq rad etish emas, balki ularni milliy fonetik va semantik tizimga moslashtirish orqali me'yorga solish zarur. Shu yo'l bilangina tilning tabiiy taraqqiyoti, xalq ruhiyati va zamonaviylik o'rtasida muvozanat saqlanadi.

(Hajm cheklanganligi sababli maqolada muammo faqat ayrim sohalar misolida ko'rib chiqildi; kengroq tahlil keyingi tadqiqotlarda davom ettiriladi.)

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tilning sofliğini saqlash bugungi globallashuv davrida nihoyatda dolzarbdir. Internet va axborot oqimiga boy muhitda begona so'zlar sezdimay tilimizga kirib kelmoqda – ko'pincha ularning o'zbekcha muqobillari borligi e'tibordan chetda qolmoqda. Xorijiy brendlar va texnologiyalar oqimi bilan ularning nomlari ham tilimizga kirayotganini hisobga olsak, bu jarayonni butkul to'xtatib bo'lmaydi. Lekin shu o'zlashmalar adabiy tilimizda chuqur ildiz otib ulgurmasidan ularni munosib milliy atamalar bilan almashtirib borish kerak. Bunday ishlar uchun bizda huquqiy va tashkiliy asoslar (davlat tilini rivojlantirishga doir farmonlar, Atamalar komissiyasi v.b.) mavjud.

Xorijiy o'zlashmalarga muqobil tanlashda bir necha tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq. Avvalo, yangi tushuncha uchun hozirgi adabiy til boyligidan so'z izlash lozim. Agar adabiy tilda topilmasa, sheva va tarixiy qatlamga murojaat qilish mumkin. Bunda ba'zi unutilgan so'zlar yoki lahja variantlari ish berishi mumkin. Bu yo'ldan ham natija bo'lmasa, tilning ichki so'z yasash imkoniyatlarini ishga solish kerak: masalan, yonhakam kabi yangi so'z yasab ko'rish taklif etiladi. Shuningdek, zarur hollarda qarindosh tillar tajribasiga nazar solib, ulardagi atamalarni moslashtirish ham mumkin. Eng muhimi, har bir soha mutaxassislari va OAV milliy muqobillarni ommalashtirishga harakat qilishi zarur. Shunda yangi avlod ularni o'zlashtirib, begona so'zlarga ehtiyoj sezmaydi. Ona tilimiz lug'at boyligini asrash va boyitish – barchamiz zimmasidagi vazifa. Milliy iftixor va ongli yondashuv bilangina globallashuv davrida tilimizni musaffo saqlash va uning boyligini avaylab rivojlantirishga erishamiz.

АДАБИЙОТЛАР

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni
3. Паул Г. Принципы истории языка. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – 500 с.
4. Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: "Маънавият" нашриёти, 2006. – 336 б.
5. Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1996.
6. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1960. – 500 б.
7. Девону луғотит турк. II том. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1963. – 428 б.
8. Девону луғотит турк. III том. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1963. – 463 б.

9. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1967. – 550 б.
10. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1985. – 200 б.
11. Ҳожиев А., Бегматов Э. ва бошқалар. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 314 б.
12. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 177 б.
13. Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. – М.: Наука, 1988. – 216 с.
14. Маҳмудов Н. Халқаро тил ва она тили // “Истиқлол ва тил” илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2012. – Б. 3-9.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi majlisining 62-son bayoni. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/31/muqobillar/>
16. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. – Тошкент: “Nodirabegim” nashriyoti, 2020. – 140 б.